

LIZING TUSHUNCHASINING NARAZIY ASOSLARI

Murodxonov Muhammadnur

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Yurisprudensiya 2-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Mamlakatimizda oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar sharoitida fuqarolik huquqiy munosabatlarni tartibga solishning nazariy va amaliy muammolarini nazariy-metodologik va amaliy jihatdan o‘rganish ishlari izchil amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarga qaramasdan tashkiliy-huquqiy munosabat ekanligiga alohida e‘tibor qaratilmaganligi oqibatida ularning bajarmasligiga yoxud buzilishiga sabab bo‘lmoqda, ba‘zi hollarda tashkiliy-huquqiy munosabatlarga oid huquqiy normalarni qo‘llash jarayonida ayrim muammolar vujudga kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida “fuqarolik huquqiy munosabatlar ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishga to‘sqinlik qiluvchi fuqarolik qonunchiligidagi huquqiy bo‘shliqlar va kolliziyalarni bartaraf etish” vazifalari belgilab qo‘yilgan. Bundan kelib chiqib, hozirgi kunda fuqarolik muomalasai, amaliyoti av uning bosqichlarini qamrab oluvchi yaxlit bir tizim joriy qilinganligi, ayni bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga ham salmoqli ta‘sir ko‘rsatadi. Lizing nafaqat bizning mamlakatimizda, balki butun dunyoda ham tadbirkorlik faoliyatining eng yosh turlaridan biri hisoblanadi. Lizing XX asrning 50 - yillarida AQSHda paydo bo‘lib, 60 - yillarning boshidayoq butun Yevropada keng tarqala boshladi hamda mablag‘larni asbob-uskunalarga investitsiya qilishning eng samarali va ishonchli usuli sifatida tan olindi.

Kalit so‘zlar: Lizing, lesser, huquq, Qonun, sotuvchi, lizing beruvchi, fond, bank, shartnoma.

Abstract:

In the context of the wide-ranging reforms that are increasing in our country, theoretical, methodological and practical studies of the theoretical and practical problems of regulating civil legal relations are being carried out consistently. Despite the large-scale measures being implemented, due to the fact that special attention is not



paid to the organizational-legal relationship, it is the reason for their non-fulfillment or violation, in some cases, some problems arise in the process of applying the legal norms related to the organizational-legal relationship. Also, in the concept of improving the Civil Legislation of the Republic of Uzbekistan, the tasks of "eliminating legal gaps and collisions in the civil legislation that prevent the effective protection of the rights and legal interests of the participants of civil legal relations" are defined. Based on this, the introduction of a comprehensive system that covers civil transactions, practice and its stages has a significant impact on the development of the market economy. Leasing is one of the youngest types of business activity not only in our country, but also in the whole world. Leasing appeared in the USA in the 50s of the 20th century, and in the beginning of the 60s, it began to spread throughout Europe and was recognized as the most effective and reliable way to invest funds in equipment.

Keywords: Lease, lessor, law, Law, seller, lessor, fund, bank, contract.

Аннотация:

В условиях нарастающих в нашей стране широкомасштабных реформ последовательно проводятся теоретические, методологические и практические исследования теоретических и практических проблем регулирования гражданских правоотношений. Несмотря на реализуемые масштабные мероприятия, в связи с тем, что организационно-правовым отношениям не уделяется особого внимания, это является причиной их неисполнения или нарушения, в ряде случаев возникают проблемы в процессе применения правовые нормы, связанные с организационно-правовыми отношениями. Также в концепции совершенствования гражданского законодательства Республики Узбекистан определены задачи «устранения правовых пробелов и коллизий в гражданском законодательстве, препятствующих эффективной защите прав и законных интересов участников гражданских правоотношений». Исходя из этого, внедрение комплексной системы, охватывающей гражданско-правовые сделки, практику и ее этапы, оказывает существенное влияние на развитие рыночной экономики. Лизинг – один из самых молодых видов предпринимательской деятельности не только в нашей стране, но и во всем мире. Лизинг появился в США в 50-х годах 20 века, а в начале 60-х годов он начал



распространяться по всей Европе и был признан наиболее эффективным и надежным способом вложения средств в оборудование.

Ключевые слова: Аренда, арендодатель, закон, Право, продавец, арендодатель, фонд, банк, договор.

KIRISH

Butunjahon bo‘ylab lizing amaliyoti ommalashib bormoqda. Bu esa o‘z o‘rnida binday shartnomalarning noan‘anaviy tusdan an‘anaviy tusga olib borishi uchun xizmat qiladi. O‘zbekistonda esa, lizing shartnomasini yo‘l-yo‘riqlari belgilab olinmoqda. O‘z nabatida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘illanuvchi subyektlarni moliyaviy jihatdan ta‘minlash orqali ulardagi mavjud iqtisodiy inqiroz yoki yetarli darajada aylanma pul mablag‘larining mavjud emasligi lizingga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi. Lizing - asosiy ishlab chiqarish vositalarini zudlik bilan yangilash, korxonalarni zamonaviy texnologiyalar bilan ta‘minlash va ularni joriy etish, shu asosida ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati hamda hajmini keskin oshirishga yordam beradi. Ta‘kidlab o‘tish lozimki, o‘tgan vaqt davomida mamalakatimizda lizing munosabatlarini huquqiy tartibga soluvchi maxsus qonun ishlab chiqildi. Bundan tashqari, tegishli davlat organlari tomonidan lizing amaliyotini yoki lizing bozorini qo‘llab quvatlashga doir qonunosti hujjatlari qabul qilindi va shu asoada chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

«Lizing» so‘zi ingliz tilidan olingan bo‘lib, “mulkni ijaraga berish” yoki “mulkni ijaraga olish” ma‘nolarini bildiradi. Manbalarda ta‘kidlanishicha, mashina, jihoz, transport vositalari va boshqa ishlab chiqarishga taaluqli harakalanuvchi mulkni uzoq muddali jaraga olish tushuniladi [3:125].

Lizingda, lizing kompaniyasi (lizing beruvchi) tadbirkorning buyurtmasini bajarishda, o‘z mablag‘lari hisobiga mulk (lizing obyekti)ni o‘z xususiy mulki sifatida ishlab chiqaruvchi (sotuvchi)dan xarid qilib oladi. Shundan so‘ng, ushbu lizing obyekti lizing oluvchiga keyinchalik sotib olinishi sharti bilan, lizing shartnomasi asosida ijaraga beriladi. Tadbirkor (lizing oluvchi) lizing shartnomasi asosida mulkdan foydalanib, daromad oladi va bosqichma-bosqich to‘lab lizing beruvchidan qarzini uzib boraveradi [2.].

Ko‘pchilik mualliflar lizingning mohiyatini ochib beruvchi o‘ziga xos xususiyatlarni nazardan chetda qoldiradilar. Ma‘lumki, lizing oddiy ijara emas, balki bu – uning o‘ziga xos-kreditga yaqinlashtiruvchi iqtisodiy instrumentlardan biri sanaladi. Ijaradan



farqli o'laroq lizingda, qoidaga ko'ra, uchta va undan ortiq sub'ekt qatnashadi: uskunalarni yetkazib beruvchi, lizing (moliya) kompaniyalari va foydalanuvchilar. Iqtisodchilar orasida, «lizing-ijara haqidagi oddiy kengaytirilgan, bitim» yoki «ijara butun muddati mobaynida ijaraga oluvchining mulkka egalik huquqi saqlangan ijara shartnomasi» yoki «lizing ijara munosabatlarining alohida turi» deb hisoblovchilar ham mavjud [6:389].

Kishilik jamiyatining ayrim bosqichlarida ishlab chiqarish vositalari ayrim jamoalar, keyinchalik esa alohida shaxslar qo'lida to'planib borgan, ayni paytda jamiyat a'zolarining katta qismi ishlab chiqarish vositalaridan maxrum bo'lib qolgan. Bunday sharoitda, bir tomondan, mulkdorlar o'z tasarrufidagi barcha mol-mulkdan birdaniga foydalanish imkoniyati mavjud bo'lmaganligi sababli, ularning ma'lum qismi harakatsiz turib qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ishlab chiqarish vositalaridan mahrum bo'lgan jamiyat a'zolarining katta qismi ishsizlarga aylangan. Natijada ma'lum ishlab chiqarish kuchlari jamiyat uchun hech qanday naf keltirmaydigan harakatsiz holga tushib qolgan. Bu iqtisodiyotga putur yetkazib, jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni vujudga keltirgan. Bunday qarama-qarshiliklar, ma'lumki, yangicha munosabatlarning shakllanishiga olib keladi. Mana shunday qaltis vaziyatni hal etish uchun harakatsiz qolgan ishlab chiqarish vositalarini ishsizlarga vaqtinchalik foydalanishga — ijaraga berish g'oyasi tug'ilgan bo'lsa ajab emas [4:9].

Tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, lizing to'g'risidagi ana shunday ajoyib fikr birinchi bo'lib eramizdan avvalgi IV asrda yashagan grek faylasufi Aristotel tomonidan bildirilgan. **“Boylik mulkka egalik qilishda emas, balki undan samarali foydalanishdadir”**, degan mashhur so'zlar aynan unga tegishlidir. Olim ushbu falsafiy fikrlari bilan lizing g'oyasini yaratdi, u bugungi kunda ham lizing mohiyati va ahmiyatini ochib berishda asos bo'lib xizmat qilmoqda. Lizing (ijara), dastavval, mulk tushunchasini ikkiga: mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqiga bo'lib yubordi. Bunda mehnat qilish va foyda olish uchun, albatta, mulk egasi bo'lish shart emas, balki undan vaqtinchalik foydalanish huquqiga ega bo'lish qoidasi hukmronlik qilib ijara beruvchida mulkka egalik qilish huquqining daxlsizligi saqlab qolindi. Lizing munosabatlarining keyinchalik rivojlanishi natijasida shakllangan zamonaviy moliyaviy ijara turi, ya'ni lizing esa ijaraga olingan mulkdan nafaqat vaqtinchalik foydalanish, balki unga egalik qilish huquqini yaratib, ijarachilarda mulk sohibiga aylanish tuyg'usini vujudga keltiradi. Shunday qilib, iqtisodiyotda mulkdan foydalanishning yangi shakli — ijara munosabatlari, keyinchalik esa uning



takomillashgan maxsus turi moliyaviy ijara — lizing vujudga kelgan. Demak, lizing amaliyotlarining zaminida, avvalo, ijaraga asoslangan mulkiy munosabatlarning tadrijiy rivojlanish bosqichlari yotadi. Shu bilan birga, lizing mohiyatini to‘laroq, tushunish uchun uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganish katta ahamiyat kasb etadi [4:10]. Lizing shartnomasida bitta shartnoma tugashi bilan ikkinchi bitimni xosil bo‘lishiga turtki bo‘ladi, lizing shartnomasi doirasida bir nechta subyektlar o‘zaro shartnoma doirasida ko‘rishadilar

Fuqarolik Kodeksining 587-moddasida lizing shartnomasiga quyidagicha ta’rif berilgan. Unga ko‘ra, lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) bir taraf lizing oluvchi (ijaraga oluvchi) ikkinchi tarafning topshirig‘iga binoan sotuvchi uchinchi taraf bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulk sotib olish haqida kelishish majburiyatini oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini oladi.

Birinchidan, lizing uch taraflama (sotuvchi - lizing beruvchi - lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo‘yicha amalga oshiriladi. Lizing beruvchi va sotuvchi o‘rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo‘shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Ikkinchidan, lizing shartnomasi konsensual shartnomalar guruhiga mansub.

Uchinchidan, shartnoma haq baravariga tuziladi. Lizing oluvchi lizing beruvchi lizing obyektidan foydalanganligi uchun lizing to‘lovlarini to‘laydi [2:178].

XULOSA

Rivojlanib borayotgan zamonda to‘lov uslubini muqobil usullariga kundan-kun ehtiyoj ortib bormoqda. Lizing dunyoning barcha mamlakatlarida keng ko‘lamda qo‘llanilayotgan eng samarali moliyaviy xizmat turlaridan biri hisoblanadi. Oxirgi 15 yilda rivojlangan mamlakatlarda lizing operatsiyalarining hajmi 5-marta oshgan va ularning 30%dan ortiq, investitsiyasi lizing orqali amalga oshirilmoqda. Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatib turibdiki, lizing dunyodagi barcha mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o‘rin egallagan va bugungi kunda ham ushbu moliyaviy munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berib kelinmoqda.

O‘zbekiston hukumati mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridanoq, lizing amaliyotlarini rivojlantirishga e’tibor berib kelmoqda. Ushbu istiqbolli sohani rivojlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan muhim tadbirlar amalga



oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2002 yil 28-avgustdagi “Lizing tizimi rivojlanishini yanada ragbatlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida lizingni rivojlantirish uchun yangi imtiyozlar berildi.

Lizing nafaqat bizning mamlakatimizda balki, butun dunyoda keng ommalashgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Bozor munosabatlari mamlakatimizda turli mulk shakllarining bir xilda amal qilishini ta‘minlash bilan birga, mulkiy munosabatlarning kengayishiga, tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga, mulkdorning o‘z mol-mulklarini turli vositalar orqali muomalaga kiritishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning huquqiy zaminlari ham ishlab chiqildi. Fuqarolik huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar o‘zining mohiyati va tabiati bilan boshqa huquq sohalari normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlardan farq qiladi. Ushbu munosabatlar iqtisodiy va yuridik jihatidan mustaqil, bir birga bo‘ysunmagan taraflar o‘rtasida vujudga keladi, ular qiymati belgilanadigan, tovar pul shakliga ega bo‘lgan va huquqiy ekvivalent, haq evazi asosida vujudga keladigan munosabatlardan iborat [5:43]. Zamonaviy huquqshunoslikda keng qo‘llanilayotgan “korporativ boshqaruv”, “korporativ munosabatlar” va ularning barchasin uchun umumiy bo‘lgan “tashkiliy-huquqiy munosabatlar”ning alohida umumiy qoidalarga birlashtirishi, ularning huquqshunoslikdagi o‘rnini belgilash va huquqiy tartibga solish qonuniyatlarini ishlab chiqish milliy huquqshunoslik oldidagi konseptual vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan biz ham yosh huquqshunos sifatida bunday zamonaviy masalalarni o‘rganishimiz zarur.

MANBALAR

1. Abdullayev S.P., Abdurahmonov M.A., Mo‘minov A.F., Hamidova Z.R. Lizing... bu nima?. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Abdusalomov M., Azizov X., Axadjonov B. Fuqarolik huquqi. – T.: Adolat, 2007.
3. Barbara B. Low. Leasing Sourcebook, The Directory of the U.S. Capital Equipment Leasing Industry. - Cleveland, Ohio.: – 1994.
4. Nabiyev E.R., Marnatov M. D. Lizing g‘oyasi, tarixi, huquqiy asoslari va amaliyoti. – T.: “UAJBNT” Markazi, 2004.
5. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari. – T., TDYuI, 2010.
6. Richard F. Vancil. Leasing of Industrial Equipment. - New York.: Norton, 1963.

